

*Ubaydullayeva Shaxnoza*

*Qashqadaryo Viloyati Chiroqchi tumani*

*MMTBga qarashli 1-maktab Tarix fani o'qituvchisi*

*Mavzu: Amir Temur markazlashgan davlat asoschisi.*

### **Maqsad va vazifalar**

1. Ta'limiy maqsad : 7 -sinfda O'quvchilar bu darsda Amir Temurning yurt obodonchiligida qilgan sayi harakatlari, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo haqida o'quvchilar tushunchaga ega buladilar

2. Tarbiyaviy maqsad : O'quvchilarni buyuk davlat qurishga, initilib yashashga, yurtni obod qilishga, uning ravnaqiga hissa qo'shish ruhida tarbiyalash.

3. Rivojlantiruvchi maqsad : O'quvchilarni mavzuga doir qiziqishi va ko'nikmalarni shakllantirish.

O'quv jarayoninig mazmuni: O'quvchilarda darslik va o'quv qurollaridan foydalanishlari qanchalik shakllanganliklarini aniqlash.

Dars metodi: an'anaviy, yangi bilim beruvchi.

Dars turi: ko'rgazmalilik, suhbat, aralash

Dars jihozi: ko'rgazmalar, texnika vositalari, didaktik materiallar, xarita, testlar, rasmlar, topshiriqli materiallar.



O'tgan mavzuni so'rash, O'tgan mavzuni mustahkamlash.

O'tilgan mavzu yuzasidan savol-javob qilish. Tarqatma varaqalar, ko'rgazma qurollar orqali o'tilgan mavzuni so'rab, uyga vazifani so'rash. Yangi mavzu bayoni: 1358-yil

Qazag'zbekning o'limidan so'ng Movarounnahrda boshlangan bosh-boshdoqlik chog'ida Temurbek amakisi Xoji


## *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*

Barlos bilan Kesh yerlarini boshqarardi. 1360-yil yanvarda Jeta (Mo'g'uliston) xoni Tug'luq Temur Movarounnahrğa yurish qiladi. Tug'luq Temur bilan kelishgan Temurbekka Keshdan Sirdaryogacha bo'lgan yerlar topshiriladi. Tug'luq Temur orqasiga qaytib ketadi. Xizr Yasuriy va Temurbek birga qo'shin yig'adilari. Xoji Barlos esa Yasuriy bilan yovlashadi va unga qarshi yurish qiladi. Tomonlar Oyqor yaqinida to'qnashishadi. Temurbek tomon dushmanni yengadi. Biroq keyinroq Temurbek Yasuriy bilan yovlashadi. Kesh yaqinidagi Surushdagi urushda Temurbek dushmanni yengadi. Temurbek Termiz tomonga qarab yuradi. Ali Jarjariy bilan yovlashadi. Angor yaqinida to'qnashishadi. Temurbek dushmanni yengadi. 1361-yil martda Tug'luq Temur yana Movarounnahrğa yurish qiladi. Temurbek yana Tug'luq Temur oldiga boradi va Temurbekka Kesh viloyati va 10 ming kishi topshiriladi. Movarounnahrğa xon qilib Ilyosxo'ja, Tug'luq Temurning o'g'li, tayinlanadi. Tug'luq Temur o'z yurtiga qaytadi. Temurbek Husaynbek bilan uchrashadi. Alibek Joni Qurboniy bu ikki bekni tutib qamatadi. Moxonda qamoqda bir necha kun qolgan beklar Muhammadbek, Alibekning akasi, tomonidan ozod qilinadi. Temurbek Seyiston tomon yuradi. Temurbek va Husaynbek Seyiston hokimi so'rovi va bergan so'zlariga ko'ra uning yovlariga qarshi urushishadi. Temurbek tomon dushmanni yengadi. Seyiston hokimi so'zini ustidan chiqmaydi. Temurbek Seyistondan qaytishida Sagziylar Mekrondan kelib Temurbek va yo'ldoshlariga tashlanishadi. Sagziylar qo'shini chekinadi. Temurbekning o'ng qo'li va o'ng oyog'i yaralanadi. Temurbek Garmsirga keladi va tuzaladi. Keyin Balxga qarab boradi va Abdulloh arig'i oldida, Abu Said, Mangli Bu'ga, Haydarlarga qarshi urushadi. Temurbek dushmanni yengadi. Temurbek Dashti Ko'lankaga keladi. Toshko'prik yaqinida Temurbek Yumkon



## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

o'g'li Temur, Sariq, Shingum va Tug'luq Xo'jaga qarshi urushadi. Temurbek dushmani yengadi. 1364-yil Temurbek va Husaynbek Kesh yaqinidagi Qubba-i metinda Ilyosxo'ja bilan to'qnashishadi. Temurbek tomon dushmani yengadi. Temurbek Qobulshoh O'g'lonni Movarounnahrğa xon qilib ko'taradi. Ilyosxo'ja yana Movarounnahrğa yurish qiladi. 1365-yil 22- mayda Chinoz yaqinida Chirchiq daryosi bo'yida Loy jangi bo'lib o'tadi. Temurbek bo'linmasi qarshi tomon bo'linmasini yengadi. Biroq Husaynbek dushmanga qarshi turolmaydi. Bu yuzdan Temurbek Keshga qaytishga majbur bo'ladi. 1366- yil Husaynbek va Temurbek yovlashadi. Qatlashdagi urushda Temurbek tomon dushmani yengadi. Temurbek Qarshiga qarab yuradi. Qarshi qamalida Musabekni 12000 otlig'ini 243 kishi bilan



yengadi. 1367-yil Moxon yaqinidagi Bermasda Bekishohga qarshi yuradi. Temurbek dushmani yengadi. Temurbek Husaynbek bilan yarashib Qobul tomon yuradi. Temurbek tomon Qobul sharini egallayadi. 1368-yil Temurbek Badaxshonni yag'mo etib qaytadi. Temurbek Husaynbek ila yana yovlashadi. 1370-yil Arxangdagi urushda Temurbek Husaynbekni uzil-kesil yengadi. Sayyid Baraka Temurbekka tabl va yalov taqdim

etadi. Temurbek Balx tomon yuradi va Balxni qo'lga olib Suyurg'otmish O'g'lonni xon qilib ko'taradi. 1370-yil Temurlilar davlati quriladi.

1. O'tilgan mavzuni rejasi asosida xulosa qilib, eng muhim ma'lumotlarga o'quvchilarning diqqati jalb qilinadi.

2.Savollar berish orqali bilimlar mustahkamlanadi.

3.Mustaqil ishlashlari uchun vazifa beriladi.

Yangi mavzuni guruhlarğa savollar asosida tushuntirish.

1-guruh: Markazlashgan davlat deganda nimani tushinasiz?2-guruh: Davlat obod bo'lishi uchun nima qilish kerak?

## Ta'limning zar

3-guruh: Vatan deganda  
nimani tushunasiz?

1-guruh: A.Temur  
markazlashgan davlatni tuzishi?

2-guruh: Oilamiz, uyimiz,  
obod bo'lishi uchun nima  
qilishimiz lozim?

3-guruh: Temuriylar davri  
madaniyati?

Yangi mavzuni



mustahkamlash

Dars yakuni.

Temuriylar davlatining  
markazlashuvi haqidagi bilimlarini  
taqqoslash mavzusi mustahkamlash.  
Ko'rgazmali rasmlar orqali savol-javob  
o'tkazish

Baholash va uyga vazifa berish

Darsning borishi :

I.Tashkiliy qism:(3 daqiqa

Sinf bilan tanishish.

Sana haqida ma'lumotlar.

Mustaqllik bayrami haqida suhbatlashish

Tashkiliy qism: Darsimiz salomlashishdan boshlanadi. Sinf tozaligini tekshirish, sanani aniqlash, davomatni aniqlash, o'quvchilarning darsga tayyorgarligini aniqlash.

Darsning shiori: Amir Temur merosini o'rganish

Dars jihozi:

1. Darslik kitob
2. Dunyo siyosiy xaritasi.

3. O'zbekiston xaritasi
4. Amir Temurning rasmi
5. Me'moriy obidalarning rasmi
6. Tarqatma materiallar
7. Doska, bo'r.

O'qituvchi : -Qani bo'lmasa sizlarni sinab ko'raman.

O'qituvchi: - Amir Temur markazlashgan davlatga asos qchon solishi ?

Bolalar:1370 yilda

O'qituvchi: - Qani bolalar tarix kitobi nimani o'rgatadi ?

Bolalar: - O'zbekiston tarix Jaxon tarixini o'rganadi

1. Amir Temur saltanatining davlat boshqaruvi qanday idoralardan tashkil topgan va boshqarilgan?

Javob: Dargox va Vazirlik devonidan tashkil topgan bo'lib Dargox Amir Temur tomonidan Vazirlik devoni esa bosh vazir yani devonbegi tomonidan boshqarilgan

2. Amir Temurni buyuk g'alaba bilan kimlar tabriklab muboraknomalar yubordilar?

Javob: Fransiya qiroli Karl VI Angiliya qiroli Genrix IV Kastiliya va Lion qiroli Genrix III unga muboraknomalar yubordilar.

3. Amir Temur mamlakatni necha yil boshqarib qanday hududlarni egalladi?  
Javob: Amir Temur 35 yil davomida mamlaatni boshqardi. U Hindiston va Orol dengizidan Fors qo'ltig'iga qadar bo'lgan g'oyat katta hududni qamrab olgan ulkan saltanatni vujudga keltirdi.

1. Loy jangi qachon bo'ladi?

Javob: 1365 – yil Chinoz bilan Toshkent o'rtasida chirchiq daryosi yaqinida ro'y beradi.

2. Amir Temur necha yoshida Tag'liq Temur xizmatiga kirdi?

Javob: 24 yoshida viloyatning dorug'asi etib tayinlandi.

3. Amir Temurning Piri kim?

Javob: Jayyid Baraka

4. Amir Temurning yurishlarini tarixchilar necha bosqichga bo'lganlar.

Javob: Uch yillik, Besh yillik, Yetti yillikga

5. Amir Temurning besh yillik urushi qaysi davlatlarga bo'lgan?

Javob: G'arbiy Eron, Iroq, Ajam.

6. Xalqning arz dodini eshituvchi shaxs.

Javob: Dodxox

O'qituvchi: Amir Temur o'z davlatining shon-shuhrati uchun uning markaziy qismi bo'lgan Movuraunnahrning ayniqsa Samarqandning obodonligiga alohida e'tibor berdi. Uning har bir zafarli yurishi natijasida muxtasham me'morchilik obidasini barpo etish bilan nishonlashni odat qilgan. Shu maqsadda Hindistondan olib kelingan yuzlarcha mohir g'isht teruvchilar, Sheroz, Isfaxon, Damashqning mashhur ustalari qatorida mahalliy ustalar mamlakatda go'zal

imorat, inshootlar bino qildilar. Amir Temur Tabrizda masjid, Sherozda Saroy, Bog'dodda madrasa, Turkistonda mashhur Ahmad Yassaviy qabristoniga maqbara bino qildilar. O'zining ona yurti Shaxrisabzda otasi va o'g'li Jaxongirning qabri ustiga maqbara qurdiradi. Shaxrisabzda dunyoda dong'i ketgan mashhur Oqsaroy qad ko'tardi. Oqsaroyning xoshinkor, guldor naqshlari orasiga

### **SONLI TOPISHMOQLAR BERILADI**

1. 1334 – yil: Javob: Sarbadorlar davlati tashkiloti.

2. 1365 – yil: Javob: Loy jangi

3. 1399 – 1404 – yil: Javob: Amir Temur Hindistonga hujm qildi.

4. 1395 – yil: Javob: To'xtamishxon Terik daryosi bo'yida mag'lubiyatga uchradi.

5. 1386 – yil: Javob: Hirot, Histon, Mozondaronni egalladi.

6. 1388 – yil: Javob: Amir Temur Xorazmni uzil – kesil bo'y sundirdi .

1 – savol XIV asrning 60 – yillarida Mavarounnaxrdagi siyosiy vaziyat qanday bo'lgan edi? Javob: Mavarounnaxrda parokandalik talangan inqirozga yuz tutgan edi. Mamlakatni birlashtirish zarur bo'lib qoldi.

2 – savol Amir Temur markazlashgan davlat tuzushda kimlarga tayandi? Javob: Ruhoniylar, harbiylar, savdogarlarga.

## *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*

3 – savol: Amir Temur qachon Mavarounnaxr hukumdori deb e'lon qilindi?

Javob: 1370 – yil aprelda.

4- savol: Amir Temur bilan Amir Husayin o'rtasidagi nizo qanday yakun topdi? Javob: 1370 – yilning 10 – aprelda Balx shahri Amir Temurga taslim bo'ldi Amir Husayin asr olinib qatl etiladi.

5 – savol: 1370 – yil 11 – aprelda o'tkazilgan qurultoyning tarixiy ahamiyati nimadan iborat? Javob: 1370 – yil 11 – aprelda Amir Temur qurultoyda Mavarounnaxr amiri deb e'lon qilindi.

6 – savol: Amir Temur Xorazimga necha marta yurush qildi?

Darsni yakunlash: O' qituvchi o' quvchilarning ishtirokini e' tiborga olib ularning javoblarini izohlagan holda baholaydi va darsni xulosalaymiz .

Darsni nihoyasida g' olib guruhlarga maxsus tayorlangan rag' bat yorlig' i beriladi . Uyga vazifa tariqasida o'quvchilarga o'tilgan mavzuni mustahkamlash hamda yangi mavzuni o'qib kelsa bugungi kunda bugungi kunda ro'y berayotgan yangiliklardan xabardor bo'lish topshiriladi.



**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Hamdam Sodiqov O'zbekiston tarixi .1tom Toshkent Sharq 2011y.
2. O'zbekiston milliy ensiklopidiya 1tom Toshkent "Toshkent ilmiy nashriyoti",2000y.
3. I.Mo'minov "Amir Temurning O'rta Osiyoda tutgan o'rni va roli". Toshkent, 1993yil.
4. T.Fayziyev"Temuriylar shajarasi". Toshkent, 1994 y.
5. T.Fayziyev. "Temuriylar shajarasi". Toshkent.1997.
6. Temur va ulug'bek davri tarixi. Toshkent.1996
7. X.Ye. Bekmuxammadov "Tarix terminlarining izoxli lug'ati" Toshkent "O'qituvchi " 1986
8. B. Axmedov "O'zbekiston tarixi manbalari " Toshkent "O'qtivchi " 2001
9. Temur tuzuklari. T., 1991
10. Amir Temur va temuriylar davrida madaniyat va san`at T., 1996